

Gulmira NURIDDINOVA


ONA ALLASI

Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2007

84(54)6

Bokira qalb turfaraing bahorga o'xshaydi. Unda ezgu his-
lar atirgullar kabi barq urib yashmaydi. Ammo ularning
orasida nisbatan rang ololmaganlari ham bo'lishi mumkin.
Chunki uning bog'boni endigina gulning hidini olishga bel
bog'labdi. Hali u bog'bonlik ilmini chuqur o'zlashtirishi,
bu yo'lda mehnat mashaqqatlaridan cho'chumasligi, qora
tunlar sochini oqqa bo'yashi, oq qog'ozlarning betlarini
gullar bilan qayta-qayta bezashdan erinmasligi lozim. Eng
muhimi, Gulmirada ana shu jihatlar bor ekan, biz unga
sira bo'shshima, singlim, deya oq yo'l tilaymiz.

To'lqin HAYIT



HO 33442
Ogi

ISBN 979-9943-08-182-6

© G. Nuriddinova, 2007

SHAMOL

Tuni bilan izgʻigan shamol
Daraxtlarning ustidan kuldi,
Bu koʻrgulikka dosh bermagan tol
Mardlik qilib halol yiqildi.

Shamol shodon charx urib ketdi,
Bulutlarni oldiga solib.
Soʻng yigʻladi telba bulutlar
Shamollarni qoʻyniga olib.



ONA ALLASI

Ona allasining sehdan sarxush,
Beshikda chaqaloq ko'rar oppoq tush.
Qalbi bu olamning zavqidan to'lib,
Ko'klarga uchadi misli oppoq qush.

Ona allasidan orom olar yurt,
Sen uni baxtingni elchisi deb kut.
Onaning allasi yangragan zamon,
Barcha yomonliklar bo'ladi unut.



KUTASIZ

Dunyoda tanhosan deyasiz,
Men uchun yolg'ondan kuyasiz.
Bilmadim, yolg'onni ne uchun,
Chin so'zdan yuqori qo'yasiz.

Armonni yo'limga tutasiz,
Siz meni intizor kutasiz.
Ortimdan ergashib ne uchun?
Dilimni yaralab ketasiz



ONA

Hayoting armonga aylangan ona,
Farzanding dog'ini ko'rgansan yana,
Munisam, mening dil bandim,
Hayot sinoviga kelgansan ona.

Ko'zga yosh kelganda, yashirgin mayli,
Bu yoshlar barchasi bizlar tufayli,
Quvonchli kunlaring oldinda hali,
Hali oldindadir baxtimiz sayli.



QQ VA QORA

Osmondagi oq bulutlar
Nechun yiroqda joylashgan?
Qora bulut mudom pastda,
Bir-biridan uzoqlashgan.

Odamzotning baxti kabi
Oldindadir yaxshi kunlar.
Odamzodning qayg'usiga
O'xshab qolar qora tunlar.



ERMAK

Turli-tuman gullarni,
O'stirgaymiz xonada.
Oyoq qo'yib bo'lmaydi,
Hattoki ostonaga.

Bolalarga ermak deb,
Xushnud qilamiz dilni.
Ba'zan ermak bo'lamiz
Berib qo'ysak ko'ngilni.



AKAMNI ESLAB

Kuz keldi, sarg'ayish damlari yetdi,
Ko'chalarni kezdim g'amgin tikilib.
Xazonlar poyimga sochilib ketdi,
Onamning qaddi ham qoldi bukilib.

Boshimda yulduzlar karvoni unsiz,
Jimirlab nurlarin socha boshlaydi.
Otam sog'inchini yashirolmasdan,
Siz uchun betinim ko'zin yoshlaydi.

Qachon bog'larimga qaytasiz aka?..



KELINCHAK

Sochlaringni mayda-mayda o'ribsanmi, kelinchak?
Boshing uzra baxt qushini ko'ribsanmi, kelinchak?
Tongda turib hovlilarga suvlar sepib yurasan,
Diling suygan ostonaga kelibsanmi, kelinchak?

ONA TILIM

Ona tilim tiklandi, mening elimda,
Cheksiz umid uyg'ondi mening dilimda,
Endi men o'rganaman ona tilimni,
Ustozlardan olaman eng zo'r bilimni.



TUSHUMDA

Uyqim qochdi bir kuni,
Yuragimni bosdi g'am,
Menga nima bo'lganin,
Bilolmasman sira ham.

Dunyoning ishlari-ku
Tushday juda g'aroyib.
Mening dilimdagini
Anglamaydi xaloyiq.

Nega bunday bo'lganin
Bilmayapman o'zim ham.
Tushumdagi ko'rganin
Tinchimni buzar har dam.

Qayon ketdingiz, aka,
Boqmadingiz men tamon,
Tushlarimga kirasiz,
Sizni sog'ingan zamon.



VATAN

Ta'zimdaman har qachon,
Senga aziz Vatanim.
Qo'msayman qayga borsam,
Bezovta bo'lar tanim.

Bayrog'ing falakdadir,
Budir tinchlik timsoli.
Madhiya yangrar dilda,
Bir qo'ng'iroq misoli.

Bu tuproqdan o'tgandir,
Qancha buyuk karvonlar,
Shu ulug' tuprog'ingdan,
Panohtopgan insonlar.

To'marisdek qizing bor,
Ishon bizga, jon tanim.
Qo'nmasin zarra g'ubor,
Ko'zlaringga Vatanim.



BAHOR

Qushlar sayroqi bo'ldi,
Suvlar o'ynoqi bo'ldi,
Yalpiz ham qoqi bo'ldi,
Bu bahordan darakdir.

Sumalaklar qaynaydi,
Qozonlarda o'ynaydi,
Momolarim kuylaydi,
Bu bahordan darakdir.

Issiq kiyim tashlanar,
Yengil kiyim boshlanar,
Qirga chopar oshnalar,
Bu bahordan darakdir.



ISTIQLOLIM

Ko'ksimga shamol tegdi,
Tinchlik shamolidir bu.
Boshim tog'larga yetdi,
Erkinlik bolidir bu.

Mustaqillik muborak,
Bo'lsin ona yurtimga.
Dilimni doston etib,
Yozay ona xalqinga.

Quyosh porlar boshingda,
U ham shoddir sen kabi.
Sha'ningga tahsin o'qib,
She'r aytadi men kabi.



ZULFIYAXONIM QIZLARIMAN

Zulfiyaxonim qizlariman,
Men ularning izlariman.
She'rga dilin berib qo'ygan,
G'amgingina yuzlariman.

O'qiyman she'rlarin yo'nib,
Tashna dilim borar qonib.
O'riklarning guli yanglig',
Borayapti qalb uyg'onib.

Osmonlaring peshtoqida,
Nur sochadi ko'k toqida.
Nasib qilsin sizday bo'lish,
Ezgu dilli qishloqiga.



MAJNUNTOL

Majnuntolim boshing egasan,
Bizga nuqul ta'zim etasan.
Kelinchakday muloyim boqib,
Orzuingga baribir yetasan.

Sen majnuntolsan kokillari uzun,
Sochlaringga ulashibdi tun.
G'amga botib keldim yonigga,
Xayol surib turganing uchun.



NAVRO'Z

O'riklar ham qiyg'os gullay boshladi,
Bulbul xonish ila kuylay boshladi.
Ishqini gullarga so'ylay boshladi,
Navro'zlar muborak bo'lsin, do'stlarim.

Ko'klamga burkandi adir bog'larim,
Jannatga aylandi hur diyorlarim.
Quyosh ham porlaydi baxtiyorlarim,
Navro'zlar muborak bo'lsin, do'stlarim.

Maysalar shivirlab qirlar qo'ynida
Boychechak ochildi qizlar bo'ynida.
Biz qo'shiq aytamiz yurtning qo'ynida
Navro'zlar muborak bo'lsin, do'stlarim.



20 07 15751	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston
----------------	---

MAKTABIM

Sendan ko'ngil uzolmasman,
Mening ulug' dargohim.
Qayon borsam ustozlarga,
Qadalgandir nigohim.

Nima qilay o'tib ketdi,
Quvnoqqina onlarim.
Hayotga ilk qadam qo'ydi,
Mening qadrdonlarim.



KO'KLAM KELDI

Ko'klam fasli kelibdi,
Yuring do'stlar qirlarga.
Moychechaklar teraylik,
Burkanaylik gullarga.

Tinchlik qo'shig'in aytib,
O'ynab-kulaylik, do'stlar.
Navro'zga peshvoz chiqib,
Shodon bo'laylik, do'stlar!



BOLAJONLAR

Buncha sho'xsiz bolajonlar,
G'ayrat sig'mas tanga.
Osmondagi oyni olib,
Chopmoqchisiz gulshanga.

Buncha sho'xsiz bolajonlar,
Qiziqqonsiz bunchalar.
Yugurasiz, poyingizda
Bosh ko'targay g'unchalar.



SEVGI

Sevgi azob ekan, sevgi qiynoq ekan,
Yurakka otash solgan, bir sham chiroq ekan.
Ishq dilini o'rtagan oshiqqa qiyin,
Ko'z yo'shlari to'xtamas mangu buloq ekan.

Majnunni sahrolarga chorlagandi u,
Farhodni g'am tog'iga bog'lagandi u,
Sevgining shunchalik ham qudrati baland,
Hattoki shohlar dilini dog'lagandi u.



HAZIL

Dadajonimning erkasi edim,
Oilamizning kenjasi edim,
«Olcha, qizginam!» deya suyganda,
Go'yo hammaning injasi edim.

Bugun ulg'aydim, yakkash lolaman,
Dadamga hamon sarkash bolaman.
Ammochi, endi shaddod jiyanlarga
Ertakchi opa, dilakash xolaman!



MUNDARIJA

SHAMOL	3
ONA ALLASI	4
KUTASIZ	5
ONA	6
OQ VA QORA	7
ERMAK	8
AKAMNI ESIAB	9
KELINCHAK	10
ONA TILIM	10
TUSHUMDA	11
VATAN	12
BAHOR	13
ISTIQLOLIM	14
ZULFIYAXONIM QIZLARIMAN	15
MAJNUNTOL	16
NAVRO'Z	17
MAKTABIM	18
KO'KLAM KELDI	19
BOLAJONLAR	20
SEVGI	21
HAZIL	22

O'zbek tilida

Gulmira NURIDDINOVA

ONA ALLASI

Muharrir:

Ma'mura QUTLIYEVA

Musahhah:

Nasiba YUSUPOVA

Texnik muharrir:

Umidjon HAYITOV

Bosmaxonaga 17.09.2007 yilda topshirildi.

Bosishga 24.09.2007 yilda ruxsat e'ldi.

Bichimi 84/108 $\frac{1}{32}$ Bosma tabog'i 0,75.

Adadi 1000 nusxa. 222 son buyurtma.

«Yangi asr avlodi» nashriyot-matbaa markazida tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» bosildi.

700113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar

Nashr bo'limi 278-36-89, marketing bo'limi 128-78-43

Faks 173-00-14, e-mail: yangiasravlodi@mail.ru